
Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahrida joylashgan istirohat bog'i yonida avtomobillarga gaz to'ldirish shoxobchasi qurilayotgani, bu yerda yashovchi mahallalarda yashovchi fuqarolar ushbu qurilishdan norozi ekani haqida shikoyat qilingan.

Ushbu holat yuzasidan Farg'ona shahar qurilish boshqarmasi quyidagilarni ma'lum qiladi.

"IZUMRUD FERGANA" MChJga tegishli shahardagi Yuksalish ko'chasi 38-uyda joylashgan istirohat bog'i va xizmat ko'rsatish bino-inshootlari hududidagi bo'sh yer maydoniga avtomobillarga tabiiy gaz to'ldirish kompressor shoxobchasi qurilishi bo'yicha xabar o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida, "IZUMRUD FERGANA" MChJga O'zbekiston Respublikasi "Er kodeksi"ning 7-moddasi va "Shaharsozlik kodeksi"ning 20-moddalariga asoslanib, Energetika vaziri birinchi o'rinbosarining 2019 yil 12 noyabrda ruxsatnomasi, Farg'ona shahar yer resurslari va davlat kadastr bo'limining 2019 yil 17 dekabrda xo/01-2745-son, Farg'ona viloyati yong'in xavfsizligi boshqarmasining 2019 yil 18 dekabrda 27/1-2996-son, Farg'ona shahar Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazining 2019 yil 16 dekabrda 01-08/09-5551-son, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2020 yil 27 yanvarda 62-son, Farg'ona viloyat qurilish boshqarmasining 2020 yil 20 yanvarda 01-14/31-son xulosalari, Farg'ona shahar "Yangi soy" mahalla fuqarolar yig'inining bayonnomasi, berilgan. Shuningdek, "IZUMRUD FERGANA" MChJning shahar hokimligiga yozgan xati, Farg'ona shahar hokimligi huzuridagi aholi punktlarida turar va noturar-joy qurish uchun yer maydoni tanlash va ajratish, obodonlashtirish hamda o'ziga tegishli hududda bino-inshootlari qurish bo'yicha doimiy harakatdagi komissiyasining 2020 yil 27 yanvarda dalolatnomasi tasdiqlangan.

Ushbu xulosa va bayonnomalarni inobatga olgan holda, Farg'ona shahar hokimligining 2020 yil 14 fevralda "IZUMRUD FERGANA" MChJga 2019 yil 7 dekabrda ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo'lgan, shahardagi Yuksalish ko'chasi 38-uyda joylashgan jami 7437,0 kv.metrda iborat istirohat bog'i va xizmat ko'rsatish bino-inshootlari hududidagi bo'sh yer maydoniga avtomobillarga tabiiy gaz to'ldirish kompressor shoxobchasining akkumulyator batareyalarini umumiy sig'imi 1,6 metr kubdan va balonlar soni 20 tadan ortiq bo'lmagan hajmli siqilgan tabiiy gaz akkumulyatori bloki yer ostida joylashtirish sharti bilan qurishga ruxsat berish to'g'risida 73-son qarori rasmiylashtirilgan.

"IZUMRUD FERGANA" MChJning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 may kuni "Arxitektura va qurilish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 370-son qaroriga asosan Davlat xizmatlari markaziga qilgan murojaatiga ko'ra Farg'ona shahar qurilish boshqarmasi tomonidan 2020 yil 27 fevral kuni 45-F-son Arxitektura Rejalashtirish Topshirig'i (ART) hujjatlari tayyorlab berilgan.

2020-03-19 16:13:15